

Ingliz va o'zbek tillarida ayol obrazi fitonim va zoonimlar asosida tasvirlanishi, ular o'rtasidagi madaniy kontekst va lingvistik farqlar

Xudaynazarova Mo'mina Sherzod qizi

O'zDJTU Ingliz filologiyasi fakulteti 1-bosqich talabasi

mominaxudaynazarova0907@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o'zbek va ingliz tillarida ayol obrazining fitonimlar va zoonimlar orqali ifodalanishi tahlil qilinadi. Unda ayol timsolini tasvirlashda o'simlik va hayvon nomlarining qanday ma'nolarda qo'llanilishi hamda ularning milliy-madaniy xususiyatlari yoritib berilgan. O'zbek tilida ayol obrazi ko'proq noziklik, go'zallik va poklik bilan bog'langan bo'lsa, ingliz tilida kuch, ijtimoiy mavqe va faol pozitsiya bilan ifodalanishi misollar asosida ko'rsatib beriladi. Maqolada keltirilgan tahlillar har bir xalq madaniyatida ayolga bo'lgan munosabat til vositalari orqali qanday aks etishini ochib beradi.*

Kalit so'zlar: *zoonim, fitonim, obraz, xarakter, tarixiy va madaniy kontekst*

Ayol obrazi har bir xalq madaniyati va tilida alohida o'rin tutadi. Uning tasviri ko'pincha tabiat bilan bog'liq bo'lgan metaforik vositalar - fitonimlar (o'simlik nomlari) va zoonimlar (hayvon nomlari) orqali yorqin ifodalanadi. Bu o'xshatishlar nafaqat estetik maqsadlarda, balki ayolning xarakteri va ichki dunyosini yoritib berishda ham qo'llaniladi. Ingliz va o'zbek tillarida bunday tasviriy vositalarning ishlatilishi o'ziga xos yo'sinda bir biridan farq qiladi, bu esa ularning nafaqat til, shuningdek, madaniy va tarixiy kontekstlarini tushunishga ham imkon beradi.

O'zbek xalq og'zaki ijodida ayol timsoli ko'pincha noziklik, go'zallik va poklik singari ijobiy jihatlar tomonidan e'tirof etiladi. Masalan, "lola", "rayxon", "sumbul" va "nihol" kabi ayolning chiroyi, nafosati va betakrorligini ifodalaydigan fitonimlar ko'p uchraydi. Bular orasida "nihol" fitonimi yoshlik, barkamollik va kelajakka umid singari ramziy ma'nolarni ifodalasa, "sumbul" so'zi yosh qizlarning uzun, qora va ikki o'rim sochlarini tasvirlashga xizmat qiladi.

O'zbek tilshunosligida ayol obrazini ifodalashda zoonimlardan ham keng qamrovda foydalaniladi. Misol uchun, "bulbul" (xushovozlik ma'nosida), "quyon" (chaqqonlik, zaiflik ma'nolarida) qo'llaniladi. O'zbek zoonimlari ichida ayollarga nisbatan ishlatiladigan "lochin" so'zi alohida e'tiborga molik. Bu zoonim ham navqiron yigitlarni, ham jasorati barq urib turgan

qiz-ayollarni tasvirlash uchun foydalanilishi bilan boshqalaridan farq qiladi. "Lochin" ramziy ifodasi asosida yigitlar bilan bir qatorda turadigan kuchli, fidoiy va mag'rur qizlar e'tirof e'tiladi.

O'zbek tilidan biroz farqli ravishda ingliz tilidagi madaniy kontekstda ayolga nisbatan qo'llaniladigan fitonim va zoonimlar ko'pincha kuch, hojimiya va ijtimoiy mavqega urg'u beradi. Eng keng tarqalgan fitonimlardan bir - "rose" (atirgul) bo'lib, odatda "rose of my life" (hayotim atirguli) ko'rinishidagi birikma tarzida uchraydi. Shu bilan birga, ba'zi ayollarni "thorn" (tikan) ga qiyoslash orqali o'sha ayol tabiatidagi o'tkirlik, qaysarlikka ishora qilinadi. Ingliz fitonimlari orasida ayollarni "lily" (nilufar guli) ga o'xshatish bilan esa yuqoridagining aksini - noziklik va beg'uborlikni tasvirlash mumkin.

Izoh: Ingliz tilida fitonimlar asosan ayolning faqat tashqi ko'rinishi yoki ma'lum ruhiy holatini aks ettiradi, lekin uning ijtimoiy mavqeyini ifodalashda zoonimlarga nisbatan kamroq qo'llanadi.

Ingliz adabiyotida ayol timsolini ifodalash uchun turli xildagi zoonimlarni ishlatishimiz mumkin. Bulardan "my kitten" (mushukcham) so'zi orqali nazokatli va himoyaga muhtoj ayollarga murojaat qilinadi. Ammo bu ko'pincha mehr-muhabbat, erkalesh kontekstida foydalaniladi. "Lioness" (urg'ochi sher) ramziy timsoli ingliz madaniyatida ayolning hokimiyatga egaligi, oilaning tayanchi va himoyachisi sifatida matriarxal rolga ishora qiladi. Buyuk Britaniya dialektida "chick" (qushcha) zoonimi biroz salbiy bo'yoqqa ega, ya'ni yengiltak ayollarga qarata ishlatiladi. Agar shu ma'nodagi "nightingale" (bulbul) zoonimi qo'llansa, mazmun ijobiy tomonga o'zgaradi. Yoki ingliz madaniyatida keng tarqalgan "as sly as fox" iborasi ayol xarakteridagi tulkiga o'xshash ayyorlik, holatga tez moslashuvchanlikni ifodalashga yordam beradi.

Ayol obrazini fitonim va zoonimlar orqali ifodalash o'zbek va ingliz tillarida chuqur lingvistik va madaniy asosga ega. O'zbek tilidagi tasviriy vositalar ayolning nozik, go'zal va maftunkor qiyofasini yaratishga intilsa, ingliz tilidagi timsollar ko'proq dominant, kuchli va ijtimoiy mas'uliyatli ayol obrazini shakllantiradi. Bu farqli jihatlar, har bir xalqning o'z tarixiy rivojlanish jarayonida shakllangan ayolga bo'lgan munosabatni va qadriyatlar tizimini aks ettiradi

Sources:

- 1.Oxford Languages
2. Laerer Ingrid "ESL Idioms" (YouTube)
3. Innovative Academy.com